

## ROLLI O‘YINLAR VOSITASIDA QARORLAR QABUL QILISH

*Hasanova Sumanbar Hamroqulovna,  
O‘zbekiston- Finlandiya Pedagogika instituti, Informatika kafedrası  
dotsenti p.f.f.d.(PhD)  
[sumanbarxasanova@gmail.com](mailto:sumanbarxasanova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda rolli o‘yinlarning ahamiyati, pedagogik aspektlari ochib berilgan. Veb sayt yaratish misolida aniqlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash, kognitiv qaror qabul qilish.

**Abstract.** The article reveals the significance and pedagogical aspects of role-playing games in the development of decision-making and critical thinking of future informatics teachers. Defined in the example of creating a website.

**Key words:** decision-making, critical thinking, cognitive decision-making.

**Абстрактный.** В статье раскрывается значение и педагогические аспекты ролевых игр в развитии принятия решений и критического мышления будущих учителей информатики. Определено на примере создания сайта.

**Ключевые слова:** принятие решений, критическое мышление, когнитивное принятие решений.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish pedagogik faoliyati uchun juda muhim. O‘qituvchilar, ayniqsa informatika o‘qituvchilari turli texnik, didaktik va tarbiyaviy vositalar yordamida tez va samarali qarorlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lish kerak. Hisoblash ishlari va metodlar ularni ishlab chiqarishda asosiy o‘rin tutadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘ziga xos integratsiya kuchayib borishi ta’lim sifatiga ham katta ta’sir o‘tkazadi. O‘qituvchidan kompleks qaror qabul qilish va mantiqiy fikrlash bilan birgalikda kasbiy faoliyatda tanqidiy o‘rganishni rivojlantiradi.

Bu borada bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Jumladan Janet S. McKenzie — o‘qituvchilar va ta’lim mutaxassislari uchun qaror qabul qilish jarayonlarini kognitiv nuqtai nazardan o‘rganadi. McKenzie ta’limda kognitiv qaror qabul qilishni o‘rganish va ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan metodologiyalarni ishlab chiqqan. Uning ishlari ta’lim jarayonida qarorlar qabul qilish va hal qilishda, ta’lim va o‘qitish usullarini yaxshilashda foydalidir. Ta’limda qaror qabul qilish jarayonini kognitiv qobiliyat bilan o‘rganadi. Qarorlar qabul qilishda davolash jarayonlari, fikr yuritish va qarorlarni tahlil qilish jarayonlarini tushuntiradi. Tadqiqotlarida qarorlar qabul qilishning texnikasi va pedagogik aspektlari, o‘qituvchilarning bilim va mahoratiga sifatli mahsulotlar ko‘rsatgan.

I.A. Zimnya o‘qituvchilarining pedagogik qarorlarini qabul qilish jarayonini chuqur tahlil qilib, bu jarayonda o‘qituvchining kognitiv tekshiruvlari, o‘ziga xos

va hissiy holati muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. "Qarorlar qabul qilishda ilmiy bilimlarga emas, balki yordam ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi qarorlarni qabul qilishda diqqat bilan yondashishi kerak, chunki bu qarorlar o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini bevosita belgilaydi" [2].

Talabalarni, qaror qabul qilishga o'rgatish muammoni teran tahlil qilishni taqozo etadi. Buning uchun informatika darslarida rolli o'yinlar hamda simulyatsiyalardan foydalanish davr talabi.

Rol o'yinlari – bu o'quv jarayonida ishtirokchilarning turli rollarga kirib, muayyan vaziyatlarni o'ynab ko'rishlari orqali amaliy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodidir. Bu metodda ishtirokchilar vaziyatga qarab bir-biriga qarama-qarshi yoki hamkorlikdagi rollarni o'ynab, tanqidiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Chunki, rol o'yinlarining asosiy ma'nosi talabalar turli vaziyatlarda o'zlarini sinab ko'radilar, haqiqiy hayotda uchrashi mumkin bo'lgan vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini o'rganadilar, real hayotdagi rollarni o'zlashtiradilar, o'qituvchi, mijoz, rahbar, xodim kabi rollarni bajarib, shu rolga mos ravishda harakat qilishadi. Natijada "tajriba va bilimlarni mustahkamlaydilar, turli vaziyatlarni tajribadan o'tkazib, qabul qilgan qarorlari orqali o'zlarining bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradilar, empatiya va ijtimoiy anglashni rivojlantiradilar, boshqalarning nuqtai nazaridan qarashga o'rganadilar, bu esa empatiya va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi" [1. Pp.182.].

Shuningdek ta'limda rol o'yinlari talabalar va o'quvchilarni qiziqtiradi, ularning o'zaro muloqotini kuchaytiradi, o'qitish jarayonini yanada interfaol qiladi. Shu bilan birga, "real hayotda duch keladigan murakkab vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini tushunishlariga yordam beradi, bu esa ularni professional va ijtimoiy hayotga yaxshiroq tayyorlaydi" [2.C.150.].

Shunga ko'ra biz qadqiqotimizda bo'lajak informatika o'qituvchisining qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlashini rivijlantirish uchun rolli o'yinlarini tanladik.

Masalan veb saytni yaratish uchun Rol O'yini – bu informatika darslarida talabalar uchun mo'ljallangan interaktiv mashqlar bo'lib, unda ular turli xil rollarni bajarib, jamoaviy ishda veb-sayt dasturlari yaratishadi. Ushu o'yinlar orqali talabalar dizayn, dasturlash, testlash va rol bilan ishlash kabi ko'nimalarga ega bo'ladi. Bunda vazifa sifatida talabalar veb-sayt uchun jamoa bo'lib ishlashi aytiladi. Veb-saytni tasdiqlashda har biri turli rollarni, masalan, dizayner, dasturchi, testchi va foydalanuvchi bo'lishi mumkin. Jamiyat tashkilotlarida ishlashga mos, estetik va ishlash saytga harakat qiladi.

Loyiha menejeri rovida Veb-sayt jarayonini boshqaradi. Mijozni maqsadini aniqlab, harakatni taqsimlaydi. Vaqtni boshqaradi va muddatlarini nazorat qiladi. Asosiy faoliyati jamoa a'zolari bilan muntazam uchrashuvlar tashkil etadi va rejalashtirishni kuzatadi. Natijada Veb-Dizayner bo'lib ytishadi.

Bunday rol o'yinlari bo'lajak informatika o'qituvchilarining informatikadan ilmiy nazariy bilim, ko'nikma va malakasini ortishiga, shuningdek real hayotdagi imkoniyatlarga ularni qanday qo'llanishiga yordam beradi.

Rol o‘yinlari nafaqat qiziqarli, balki samarali metod. Bu metod ta’lim jarayonini jonlantirib, talabalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini va ularga real hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilishida muhim. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini tekshirish pedagogik faoliyati uchun juda muhim. Ayniqsa informatika o‘qituvchilari, turli texnik, didaktik va tarbiyaviy vositalar yordamda tez va samarali qarorlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishda va pedagogikani rivojlantirishda yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J.S. McKenzie. Decision Making in Education: A Cognitive Approach - Teachers College Press. Pp.182. 1993.
2. I.A. Зимняя. Как учитель принимает педагогические решения? - "Педагогика". С.150. 1990.